

Prezident yosh dasturchilar bilan suhbatlashdi







Shavkat Mirziyoyev Buxoro shahridagi davlat xizmatlari markazi va IT Park ni borib ko'rdi.

Bu yerda "yagona darcha" tamoyili asosida 130 dan ortiq turdagi davlat xizmatlari ko'rsatiladi. Binoda Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi, Xalq qabulxonasi, Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabulxona, FHDYo bo'limi, notarial idora ham joylashgani aholiga qulaylik yaratgan. Kutish zalida kitoblar jovoni tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari xizmatlar narxini arzonlashtirish, uzoq mahallalar aholisiga sayyor va onlayn xizmat ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda Korxonalarni sog'lomlashtirish va xususiyashtirish klinikasi ham ochilgan. Moliyaviy va yuridik maslahatlar berish, axborot xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Binoning ikkinchi qavatida IT Park ning Buxoro filiali joylashgan. Bu yerda ham o'quvchilar, ham talabalar, ham frilanser va dasturchilar uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Bolalar maktab davridan o'yinlar orqali axborot

texnologiyalariga qiziqtiriladi, keyin o'qitilib, loyihalar ishlab chiqishga o'rgatiladi. Bu yerda yosh havaskorlar, robototexniklar, veb dizaynerlar, professional dasturchilar yig'ilgan.

Prezidentimiz buxorolik yoshlarning salohiyatini yuksak baholab, bu soha mamlakatimiz taraqqiyoti uchun juda muhim ekanini ta'kidladi.

– Buxoro azaldan ilm-fan markazi bo'lgan. Bugun ham bilimli, intiluvchan yoshlar ko'p. Buxoroning IT sohasi bo'yicha brendini yaratish kerak. Buning uchun barcha narsa – sharoit, resurs, intellekt bor, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz «Mandey LABS» korxonasiga asos solgan 25 yoshli Saidravshan Shokirov, xalqaro IT kompaniyalar bilan hamkorlikda ishlayotgan dasturchi Shahrullo Tuxsanov va boshqa yoshlar bilan suhbatlashdi.

Dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo'yicha yosh dasturchilarga buyurtma berish, mablag', energiya resurslari va vaqtni tejoychi dasturiy mahsulotlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari IT Park dagi yoshlar bilan esdalik uchun suratga tushdi.

IT Park uchun Bukhara City majmuasida 9 va 12 qavatli zamonaviy binolar qurilmoqda. Majmuada kovorking markazi, ofislar, mehmonxona, restoran va sport zallari bo'ladi. U yerda 700 dan ziyod ish o'rni yaratiladi.